# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024
№ 7




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Google Scholar

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 348 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,** Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta o'qituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari ........ 16
**Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna**

Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari ........ 26
**Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li**

Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili ........ 32
**Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li**

Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili ........ 37
**Turgunov Odilbek Maripovich**

Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi ........ 41
**I. Axmedov**

Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari ........ 46
**Xusanov Murodjon Sunnatullayevich**

Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi ........ 54
**Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li**

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish ........ 59
**Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich**

O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni ........ 65
**Baymanova Mavlyuda Djurayevna**

The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan ........ 70
**Alimov Damirjon Odilovich**

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni ........ 76
**Jusupova Anjim Tansiqbaevna**

Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce ........ 82
**Sohibjamol Abirkulova**

Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish ........ 87
**Ustadjalilova Xurshida Aliyevna**

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari ........ 92
**Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi ........ 97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli ........ 104
**J. J. Yaxshilikov**

Сравнительный анализ состояния сферу услуг в регионах Андижанской области ........ 109
**Мусабоев Рустам Алижонович**

Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida ........ 114
**Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich**

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomilashtirish yo'llari ........ 118
**Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich**

Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы ........ 122
**Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зохид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёровна**

Investment Management is an Important Factor of Economic Development ........ 127
**Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon**

O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari ........ 130
**Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li**

Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish ........ 136
**Toyirov Yunus Alamovich**

Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi ........ 143
**Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich**

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash ........ 148
**Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li**

Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari ........ 152
**Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna**

QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi ........ 157
**Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich**

O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili ........ 162
**Nasimov Ravshanjon Azimovich**

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

# BUDJET TASHKILOTLARIDA PUL MABLAG'LARI NAZORAT QILISHNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Alimardonov Muxammadi Ibragimovich**
ISFT instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Djalilova Malika Shuxratovna**
ISFT instituti xodimlar bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazoratini rivojlantirishning afzalliklari va tahlili hamda istiqbollarini takomillashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, mamlakatimizda budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazoratini rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: budjet, budjet tashkilotlari, pul mablag'lari, nazorat, davlat budjeti, budjet tizimi, moliyalashtirish, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, mahalliy budjet, soliq-budjet siyosati.

Abstract: this article will discuss the advantages and analysis and improvement of prospects for the development of monetary control in budgetary organizations. Also in our country, the existing problems in the prospects for the development of monetary control in budgetary organizations and the author's approaches and proposals for their elimination were presented.

Key words: budget, budget organizations, funds, control, state budget, budget system, financing, budget revenues, budget expenditures, local budget, fiscal policy.

Аннотация: в данной статье пойдет речь о преимуществах и анализе и улучшении перспектив развития денежно-кредитного контроля в бюджетных организациях. Также в нашей стране были приведены существующие проблемы в перспективах развития денежно-кредитного контроля в бюджетных организациях и авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: бюджет, бюджетные организации, фонды, контроль, государственный бюджет, бюджетная система, финансирование, доходы бюджета, расходы бюджета, местный бюджет, налогово-бюджетная политика.

## KIRISH

Mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda budjet tizimining barcha bo'g'inlaridagi budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazoratini tashkil etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirishning o'ziga xos jihatlari mavjud.

Shuningdek, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash maqsadida davlat moliyasi tizimini isloh etish, uni mazmun va sifat jihatdan zamon talablari asosida takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bunday sharoitida budjet va budjet daromadlarini shakllantirish masalalari muhim hisoblanadi. Mamlakat va hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining yashash sharoiti va ularga ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoya, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash, hududlardagi mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy masalalarga yechim topa olishidagi muammolarni hal etish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Birinchidan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot xarajatlarini o'z vaqtida hamda zarur miqdorda moliyalashtirish uchun yetarli daromadlarni ta'minlash, ikkinchidan, aholining birinchi darajadagi ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan sohalarni rivojlantirish, uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, hududlar investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida qulay shart-sharoitlarni yaratishdagi muammolar shular jumlasidandir.

## MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazoratini tashkil etishning ahamiyati beqiyos bo'lib, turli manbalarda budjet tashkilotlari hamda pul mablag'lari tushunchalariga turli xil ta'riflar keltirilgan. Xususan, J.N.Shaturayev va H.S.Jumayevlarning qarashlaricha "budjet qonunchiligini buzganlik uchun sanksiyalarning yagonaligi, mam-

lakat budjet tizimi barcha darajalari budjetlari xarajatlarini moliyalashtirish va budjet mablag'lari buxgalteriya hisobini yurgizish tartibining yagonaligi bilan belgilanadi"[1].

R.X.Karlibayevaning fikricha, "budjet tizimidagi oshkoralik prinsipi ochiq matbuotda tasdiqlangan budjet va uning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni, albatta, e'lon qilinishini, budjet ijrosi jarayonida ma'lumotlarning to'liq va to'g'ri berilishini, davlat hokimiyati qonunchilik organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining qarorlariga oid boshqa ma'lumotlarni olish imkoniyatining yaratilganligini, budjet loyihasi bo'yicha qarorlarni ko'rib chiqish va qabul qilish tartiblarining (jumladan, davlat hokimiyati qonunchilik organi ichida yoki davlat hokimiyatining qonunchilik va ijroiya organlari o'rtasidagi qaramaqarshiliklarni ifodalovchi masalalar bo'yicha ham) jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun, albatta, ochiq bo'lishini ko'zda tutadi", [2] deya ta'kidlab o'tgan.

"Budjet ma'lum bir subyektning moliyaviy holatini, pul mablag'larining to'planishini, daromad va xarajatlarning muvofiqligini, mablag'larning ortiqcha yoki kamligini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, budjet pul daromadlari va xarajatlari balansi yoki davlat va mahalliy hukumatning vazifa va funksiyalarini ta'minlashni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan mablag'lar fondini shakllantirish va sarflash shaklidir" [3].

Iqtisodiy kategoriya sifatida "budjet" – bu davlat organlarining mamlakat aholisiga davlat xizmatlarini ko'rsatish funksiyalarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va sarflash bo'yicha davlat va iqtisodiyotning boshqa subyektlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar tizimi hisoblanadi. "Davlat budjeti kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida paydo bo'lgan bo'lib, uning vujudga kelishi, eng avvalo, siyosiy tashkilot sifatida davlatning vujudga kelishi bilan bevosita bog'liqdir. Har bir davr ijtimoiy tuzumiga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy belgilari davlat faoliyatining va budjetning taqsimlash mexanizmi sifatidagi mazmunini belgilab beradi" [4].

T.Blumentritt budjetlashtirishni "tashkilotning moliyaviy resurslarini uning bo'linmalari, faoliyati va investitsiyalariga taqsimlash jarayoni", [5] deb ta'riflaydi, S.T.Horngren va boshqalar budjetni ma'lum bir davr uchun rahbariyat tomonidan taklif qilingan harakatlar rejasining miqdoriy ifodasi va ushbu rejani amalga oshirish uchun nima qilish kerakligini muvofiqlashtirish uchun yordam sifatida ko'radi [6].

Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot budjet tashkilotidir. Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish shartlari va ularning budjet hisobini yuritish tartibi budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi [7].

Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorliligi va tejamliligi prinsipining ma'nomazmuni shundan iboratki, unga muvofiq ravishda vakolatli organlar va budjet mablag'larini oluvchilar budjetlarni tuzish va ularning ijrosini ta'minlashda, avvalo, ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishda mablag'larning kamroq hajmidan yoki ma'lum bir hajmdagi mablag'lardan foydalangan holda yuqori natijaga erishish zarurligidan kelib chiqishi kerak [8].

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, bizningcha, mamlakat iqtisodiyotida budjetlar xarajatlarini qisqartirishda budjet tashkilotlarining va budjet mablag'larini oluvchilarning budjet mablag'larini o'zlashtirishi va ularning pul mablag'ilarni nazorat qilish, shuningdek, qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinishida muhim ahamiyat kab etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazoratini tashkil etishni rivojlantirish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Fikrimizcha, budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazoratini tashkil etish moliyaviy barqarorlik va davlat tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun katta ahamiyatga ega. Budjet tashkilotlarida mablag'larning sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etishning iqtisodiy ahamiyati davlat mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlashdan iborat. Xarajatlarni nazorat qilish budjet mablag'laridan noto'g'ri foydalanish yoki samarasiz foydalanishning oldini olishga, moliyaviy boshqaruvni yaxshilashga va davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik va javobgarlikni oshirishga yordam beradi. Bu budjet xarajatlarini optimallashtirishga, tashkilotlarning samaradorligini oshirishga va belgilangan maqsad hamda vazifalarga erishishni ta'minlashga yordam beradi.

Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazoratini tashkil etishning bir necha turlari mavjud (1-rasm) .

1. Ichki nazorat. Bu budjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlash uchun tashkilotning o'zida o'rnatilgan chora-tadbirlar tizimidir. Ichki nazorat qoidalarga rioya etilishini, hisobotlarni to'ldirishning

to‘g‘riligi va o‘z vaqtida bajarilishini, shuningdek, rahbariyatning buyruq va ko‘rsatmalarining bajarilishini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

2. Tashqi nazorat. U iqtisodiyot va moliya vazirligi, hisob palatasi, vazirliklar, qo‘mitalar va boshqalar kabi davlat nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular tashkilot xarajatlari belgilangan standartlar va qoidalarga muvofiqligini tekshiradilar, shuningdek, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini baholaydilar.

3. G‘aznachilik nazorati. G‘aznachilik, budjet xarajatlari va daromadlarini hisobga olish va bajarish uchun mas’ul tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobi va nazorati tizimi yordamida g‘aznachilik mablag‘lar oqimini nazorat qiladi va tasdiqlangan budjet doirasida ulardan maqsadli foydalanishni ta’minlaydi.

4. Audit – Auditorlik tashkiloti mutaxassislari tomonidan o‘tkaziladigan tashkilotning moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarining mustaqil auditidir. Auditning maqsadi buxgalteriya hisobi va hisobotidagi xatolar hamda qoidabuzarliklarni aniqlash, shuningdek kelajakda ularning paydo bo‘lishining oldini olishdir.

5. Boshqaruv nazorati choralari. Tashkilot rahbariyati tomonidan mablag‘larning sarflanishini nazorat qilish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi sanaladi. Monitoring muntazam hisobotlar, budjet ijrosini tahlil qilish, budjet chegaralarini belgilash va ularning bajarilishini nazorat qilish shaklida amalga oshirilishi mumkin.




1-rasm. Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari nazoratini tashkil etish turlari[1]

1-rasmda keltirilgan budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari nazoratini tashkil etish turlari birgalikda tashkilotda budjet mablag‘laridan foydalanishning shaffofligi va samaradorligini ta’minlaydi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlarga muvofiq ravishda, soliq-budjet siyosatini amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni belgilangan:

- budjet siyosatining ijtimoiy yo‘naltirilganligini, jumladan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoyani rivojlantirishga;
- hududlar, ayniqsa, mahallalarning dolzarb muammolarni hal qilish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni va tabiatni muhofaza qilishni ta’minlash;
- yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish;
- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatida sof raqobat muhitini yaratilishiga zamin yaratish, bosqichma-bosqich soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish;
- birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga budjet mablag‘laridan samarali foydalanish yuzasidan javobgarligi, hisobdorligi va vakolatlarini, davlat budjeti barqarorligini ta’minlash maqsadida, ilg‘or xorijiy tajribadan hamda xalqaro moliya institutlari ekspertlarining tavsiyalaridan kelib chiqqan holda budjet xarajatlari samaradorligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan.

1 Муаллиф ишланмаси.

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasida 2024 yil uchun respublika budjeti daromadlari prognozi[2] (mlrd, so‘m)

| T/r | Ko‘rsatkichlar | Summa |
|---|---|---|
| | **O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari** | **212 643,0** |
| **1.** | **Bevosita soliqlar** | **55 697,7** |
| 1.1 | Foyda solig‘i | 39 730,5 |
| | Shundan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatlari bo‘yicha | 18 276,3 |
| 1.2 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 15 967,2 |
| **2.** | **Bilvosita soliqlar** | **106 364,1** |
| 2.1 | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 74 045,7 |
| 2.2 | Aksiz solig‘i | 17 478,8 |
| 2.3 | Bojxona boji | 14 839,6 |
| **3.** | **Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i** | **16 290,3** |
| 3.1 | Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 16 290,3 |
| **4.** | **Dividendlar** | **23 755,0** |
| | Shundan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatlari bo‘yicha | 18 585,0 |
| **5.** | **Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan boshqa tushumlar** | **10 535,9** |

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasining budjet daromadlari 2024-yilda 212 643,0 mlrd, so‘mni tashkil etishi prognoz qilingan.

Shundan, bevosita soliqlar 55 697,7 mlrd. so‘m, bilvosita soliqlar esa 106 364,1 mlrd. so‘m, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i 16 290,3 mlrd. so‘m, dividendlar 23 755,0 mlrd. so‘m, boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan boshqa tushumlar 10 535,9 mlrd. so‘mni tashkil etishi prognoz qilingan. Shuningdek, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatlari bo‘yicha 2024-yilda foyda solig‘i 18 276,3 mlrd. so‘mni, dividendlar 23 755,0 mlrd. so‘mni tashkil etishi prognoz qilingan.

Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari nazoratini tashkil etishda boshqaruv, ijtimoiy-madaniy, ilmiy-texnikaviy yoki boshqa notijorat funksiyalarni bajarish uchun davlat hokimiyati organlari ishtirok etadilar. Budjet tashkilotlari tegishli budjetni daromadlar va xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiradi. Qoida tariqasida, budjet tashkilotlari o‘z xarajatlarini qoplash uchun daromadga ega emaslar.

Budjet tashkilotlari budjet mablag‘laridan faqat daromadlar va xarajatlarning tasdiqlangan budjet smetalariga muvofiq foydalanadilar va budjet tasnifiga muvofiq budjet mablag‘lari hisobini yuritadilar.

Umuman olganda, budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari nazoratini tashkil etishning maqsadi budjet va avtonom muassasalarning davlat, munitsipal vazifalarini bajarish uchun mo‘ljallangan budjet mablag‘larining qonuniyligi, samaradorligi maqsadli ishlatilishini aniqlashdir.

Budjet tashkilotlarida mablag‘larning sarflanishi ustidan nazoratni tashkil yetishning asosiy mohiyati qonun hujjatlarida yoki boshqa normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarga erishish uchun davlat mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta’minlashdan iborat.

Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari nazoratini tashkil etishni rivojlantirishda har bir budjet tashkiloti barcha daromad va xarajatlarni kuzatish hamda kuzatishga imkon beradigan budjet rejalari va buxgalteriya hujjatlarini tuzishi shart. Shuningdek, fuqarolar, ommaviy axborot vositalari, nodavlat tashkilotlar va boshqa manfaatdor shaxslar davlat mablag‘larining sarflanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish huquqiga ega va budjet tashkilotlari faoliyatini nazorat qilishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, budjet tashkilotlarida mablag‘larning sarflanishi ustidan nazoratning samaradorligi moliyaviy boshqaruv jarayonining shaffofligi va ochiqligiga, shuningdek, boshqaruv xodimlarining mas’uliyati hamda vakolatiga bog‘liq.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat budjeti ijrosi jarayonida alohida budjetlar bilan hisob-kitob munosabatlari vujudga kelishi mumkin. Bunday o‘zaro hisob-kitoblar vujudga kelishi asosida har bir budjet tashkilotlarining budjeti daromadlar va xarajatlar balansi tarzida tashkil topishi yotadi. Barcha xarajatlar rejalashtirilgan daromadlar bilan qoplanadi. Shuning uchun, budjet tasdiqlangandan so‘ng, qo‘shimcha xarajatlar yuklansa, ularni ta’minlash uchun mablag‘

2 Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 25 декабрдаги ЎРҚ-886-сонли Қонуни. lex.uz›docs/6707765

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ham berilishi kerak bo‘ladi. Daromad beruvchi manbalar kamayganda ularni qoplash uchun mablag‘lar olinishi kerak bo‘ladi. Tasdiqlangan budjetda ko‘zda tutilmagan daromadlaming manbalari paydo bo‘lganda qo‘shimcha hisoblangan daromad summasi yuqori budjetga berilishi kerak bo‘ladi.

Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari nazoratini tashkil etish obyektining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish nazorat tadbiri boshlanishidan oldin boshlanadi. Dastlabki iqtisodiy tahlil bizga kerakli nazorat usullari va tekshirish usullarini oldindan belgilab, nazorat rejasini maqsadli ravishda tuzish va tekshiruvlar o‘tkazish imkonini beradi. Nazorat tadbirida yanada chuqurroq iqtisodiy tahlil o‘tkaziladi. Shu bilan birga, iqtisodiy tahlil ma’lumotlari buxgalteriya hisobi va statistik ma’lumotlarni taqqoslash, tekshirish obyektlari faoliyatini baholash uchun faktlar va boshqa ma’lumotlarni o‘rganish, dastlabki hujjatlarni tekshirish natijalari, buxgalteriya registrlari va boshqa iqtisodiy ma’lumotlarni o‘rganishdan iborat bo‘lgan joriy tahlil tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Budjet tizimida pul mablag‘larini nazorat qilish borasida amaliy ishlar davom etmoqda va budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi faoliyatini tubdan isloh qilish orqali yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tuzishga, shuningdek, davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, budjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta’minlaydi, axborotlarni ishonchliligi va to‘liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. lex.uz›docs/2304138
2. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 25 декабрдаги “2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги ЎРҚ-886-сонли Қонуни. lex.uz›docs/6707765
3. Shaturaev, J. N., & Jumaev, H. S. (2019). Small Business, Innovation and Entrepreneurship. International Journal of Advanced Research, 7(11), 303–307. https://doi.org/10.21474/ijar01/10008
4. R.Karlibaeva. (2021). THEORY OF FINANCE AND FINANCING STRATEGIES. International Journal of Advanced Research. https://doi.org/10.21474/ijar01/12480
5. Пивень Е.В., Бедрачук И.А. “Государственное и муниципальное управление”. Учеб. пособие/ Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2008. стр -58.
6. Маликов Т.С, Ҳайдаров Н.Ҳ. Давлат бюджети. Ўқув қўлланма.-Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.84-бет.
7. Blumentritt T., Integrating strategic management and budgeting, Journal of Business Strategy, 27 (6) (2006), pp. 73–79.
8. Horngren, C.T., Stratton, G.L., Sutton, W.O., Teall, H.D., “Management Accounting”, 4th ed. Prentice Hall, Toronto, 2004.
9. В.М. Гальперин, С.М. Игнатьев, В. И. М. (2007). “МИКРОЭКОНОМИКА.” Book, 426. https://gain.fas.usda.gov/Recent GAIN Publications/Agricultural Biotechnology Annual_Ottawa_Canada_11-20

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 7**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.